

BO‘LAJAK PEAGOGLARDA KREATIVLIK QOBILIYATI RIVOJLANISH MASALALARI.

Abdullayeva Arofatxon Abduvaxobovna
ADPI, Pedagogika va psixologiya kafedrasi katta o‘qituvchisi
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Komiljonova Qamarniso
Pedagogika tarbiya fani o‘qituvchisi yo‘nalishi
sirtqi ta’lim 1-bosqich talabasi

Anatatsiya: Mazkur maqolada bo‘lajak o‘qituvchilarning kreativlik qobiliyatini o‘z ijod mahsullarini mutahassisliklari bo‘yicha rivojlantirib, o‘quvchilarga ta’lim tarbiya orqali namoyon etib berishi kerakligi ifodalangan.

Kalit so‘zlar: Pedagog, ta’lim, tarbiya, kreativlik, bo‘lajak o‘qituvchi, 4K moduli, zamonaviy, o‘quvchi maktab, dars.

Hammamizga ma’lumki “Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida” o‘qitish metodikasini takomillashtirish vazifasi belgilangan. Shu vazifaga ko‘ra maktab darsliklarini yangilash bo‘yicha ilg‘or xorijiy tajribalarni o‘rganib chiqishimiz mobaynida 1-sinf dan 4-sinf gacha maktab darsliklari “4K” modeli asosida tayyorlanadi. “4K” modeli bugungi kunda ko‘plab sinovlardan o‘tgan zamonaviy ta’lim modelidir. Bizning O‘zbekiston Respublikasi davlatimizga yangicha zamonaviy “4K” kirib kelgan ekan, bo‘lajak pedagoglarimizning shu “4K” modeli asosida tayyorlab borishimiz kerak. Sababi, shundaki, hozirgi zamonaviy texnologiyalar rivojlangan bir davrda yashayabmiz ekan, hozirgi kunga kelib “4K” modeli joriy qilindi. Darslar shu “4K” modelida asosida o‘tkaziladigan bo‘ldi. Endi bir ta’limni zamonaviy ta’limga yo‘naltirdik. Shuunga ko‘ra bo‘lajak o‘qituvchilarmizni “4K” modeli asosida dars o‘tishlarini va kreativlik qobiliyatlarini shakllantirib rivojlantirib o‘z kasbini mohir mutahasisi etib tayyorlashimiz kerak. Misol uchun darsda o‘tiladigan biror mavzuga bo‘lajak pedagoglarimizning, didaktik o‘yinlar orqali, turli xil video roliklar orqali, ko‘rgazmali qurollar, nazariy bilim orqali darga tayyor kirishlari lozim va mavzu yuzasidan yangilik tayyorlab kelishi muhim rol o‘ynaydi. Darsga shunday tayyorgarlik qilib kelsa o‘qituvchi, o‘quvchi zerikib qolmaydi va shu fanni bo‘lishini intizorlik bilan kutadi va shu bilan birgalikda bunday “4K” modeli asosida dars o‘tishimiz o‘quvchilarni kommunikativlik, kreativ fikrlash, kritik fikrlashlarini shakllantiriladi. Misol uchun turli xil mavzuga oid o‘yinlar orqali bolaning nutqi rivojlanadi. Mantiqiy fikrlash orqali o‘ng va chap miya yarim sharlari ishlaydi. Jismoniy o‘quv mashg‘ulotlaridan esa bola ham ruhan ham jismonan sog‘lom rivojlanadi. Videorolik, korgazmali qurollar, didaktik o‘yinlar va nazariy mashg‘ulotlar orqali o‘tiladigan darslar o‘quvchilarni mustahkamroq esida qoladi. Bir sinfda 30 ta o‘quvchi bolsa shundan 10 tasi o‘tilgan mavzuni videorolik orqali esida qoladi qolgan 5 tasi ko‘rgazmali qurol orqali va qolganlar ham nazariy va didaktik o‘yin orqali mavzuni yaxshi o‘zlashtirishib boradi. Natijada esa jami 3ta ota bola shu mavzuni yaxshi o‘zlashtira oldi degani bo‘lajak pedagog o‘z maqsadiga erishgan bo‘ladi. O‘quvchilarga bir xil uslubdars o‘tilishi bu judayam zerikarli bo‘lib tuyilishi mumkin. Kreativlik qobiliyatiga ega bolgan o‘qituvchi esa bunday holatga also yo‘l qo‘ymaydi. Darslarni yaxshi o‘zlashtira olgan va yaxshi qatnshgan o‘quvchilarini ham bunday qobiliyatga ega o‘qituvchi taqdirlab boradi. Zamonaviy bo‘lajak pedagoglarimiz o‘z fan darsliklarini puhtamohorat bilan o‘quvchilarni o‘ziga jalb qilib olishlari lozim, yani o‘quvchilarda mavzu yuzasidan bahs murozalar o‘tkazishi o‘quvchilarni jamoada ishlash qobiliyatini o‘z fikrlarini aniq va Ravshan ifodalay olishligi, suhbatdoshini tinglash va tushunishni ma’lumot yetkazishni va ijodiy fikrlash va

yangiliklar tayyorlash qobiliyatini rivojlantira bilishlari lozim va shu bilan birgalikda bo’lajak o’qituvchi o’quvchilarini mavzu yuzasidan axborot almashinuvini o’z fikr mulohazalarini ifodalash orqali axborotga tanqidiy baholashni o’rgatishi lozim. Shunday dars o’tish orqali o’quv jarayonini o’quvchilar uchun qiziqarli va foydali tarzda tashkillashtirishimiz va shunga tayyor kadrlarni yetishtirib chiqishimiz lozim.

Har bir pedagogning o’zini o’zi rivojlantirishi va o’zini o’zi namoyon eta olishi bevosita uning kreativlik qobiliyatiga egaligi bilan bog’liq. Odatda pedagoglarning kreativlik qobiliyatiga ega bo’lishlari pedagogik muammolarni hal qilishga intilish, ilmiy-tadqiqot ishlari yoki ilmiy loyihalarni amalga oshirish va o’zaro ijodiy hamkorlikka erishishlari orqali ta’minlanadi. Pedagog o’z- o’zidan ijodkor bo’lib qolmaydi. Uning ijodkorlik qobiliyati ma’lum vaqt ichida izchil o’qib-o’rganish, o’z ustida ishlash orqali shakllantiriladi va u asta-sekin takomillashib, rivojlanib boradi. Har qanday mutaxassisda bo’lgani kabi bo’lajak pedagoglarning kreativlik qobiliyatiga ega bo’lishlari uchun talabalik yillarida poydevor qo’yiladi va kasbiy faoliyatni tashkil etishda izchil rivojlantirib boriladi. Bunda pedagogning o’zini o’zi ijodiy faoliyatga yo’naltirishi va bu faoliyatni samarali tashkil eta olishi muhim ahamiyatga ega. Pedagog ijodiy faoliyatni tashkil etishda muammoli masalalarni yechish, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, shuningdek, pedagogik xarakterdagi ijod mahsulotlarini yaratishga alohida e’tibor qaratishi zarur. Muammoli masala va vaziyatlarni hal qilar ekan, pedagogning masala yechimini topishga ijodiy yondashishi unda hissiy-irodaviy sifatlarning rivojlanishiga yordam beradi. Pedagog o’z oldiga muammoli masalalarni qo’yish orqali mavjud bilimlari va hayotiy tajribalariga zid bo’lgan dalillar bilan to’qnash keladi. Buning natijasida o’z ustida ishlash, mustaqil o’qib o’rganishga nisbatan ehtiyoj sezadi. Pedagog o’zida quyidagi kreativlik malakalarini namoyon eta oladi: bajariladigan vazifaning mohiyati va ahamiyatini belgilay bilish; masalaning qo’yilishini tahlil qila olish; masalani hal qilish rejasini tuzish; masalani hal qilishda samarali metodlar (analiz, sintez, induksiya, deduksiya, taqqoslash va b.)larni qo’llash; masalani hal qilish usullarini tanlay olish; qabul qilingan qarorning to’g’riligini asoslash va qayta tekshirish; masalani hal qilishda kichik tadqiqot (izlanish)ni olib borish; masalani hal qilish sharoiti, jarayonning borishi va masala yechimi yakunlarini umumlashtirishga oid dalillarni rasmiylashtirish, ilmiy-tadqiqot ishlari, ilmiy yoki ijodiy loyihalarni amalga oshirish ham pedagogning kreativlik potensialini rivojlantiradi. Natijada pedagog: ijodiy fikrlashga odatlanadi; -ilmiy-tadqiqot faoliyatini olib borish ko’nikmalarini puxta o’zlashtiradi;

Pedagogika yoki mutaxassislik fani yutuqlari, ilg’or tajribalardan foydalanish imkoniyatlarini mustaqil tahlil qiladi; pedagogik jamoa tomonidan olib borilayotgan ilmiy tadqiqot va ijodiy loyihalarni bajarishda faol ishlarni olib borishlari kerak bo’ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <https://uz.m.wikipedia.org/wiki>
2. <http://reja.tdpu.uz>
3. <https://arxiv.uz>
4. zenodo.org.
5. kompy.info